

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

F.X.Rahimov, A.Muhammadiyev

Soha komponentlarining samarali integratsiyasi – innovatsion rivojlanish garovi 8

Sh.Nishonova

Investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonining bosqichlari va investitsiya jozibadorligini baholash mexanizmlari 16

Z.M.Tojiboyev

Yashil moliya va O'zbekistonda barqaror rivojlanish: rivojlanayotgan bozorlerde ESG va yashil obligatsiyalarning roli..... 21

FALSAFA

Sh.T.Tursunkulova

Estetika tarixida go'zallik tushunchasi 25

S.S.Jabborova

Yangi O'zbekistondagi ma'naviy islohotlar ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida..... 32

M.O'rinov

Yangi O'zbekiston tasviriy san'atida avlodlar almashinuvi fenomeni va madaniy transformatsiyalar dialektikasi 35

D.N.Tag'oyeva

Oila, nikoh masalalarining genezisi va jadidlar ma'naviy merosida mazkur masalalarning aks etishi..... 39

A.A.Mirzayev

Ibn al-Arabiyning komil inson haqidagi qarashlari..... 49

M.R.Tuxtasinov

Demokratik jamiyatda siyosiy tafakkurni rivojlantirish muammolari..... 54

G.M.Ruzmatova

Ibn Sino va Erix Fromm: ijtimoiy faollikka oid falsafiy g'oyalarining qiyosiy-tahlili..... 58

J.B.Anarbayev

Yangi O'zbekiston sharoitida inson manfaatlarini ta'minlashda institutsional hamkorlikning roli..... 62

N.A.Umirzakova

Tibbiy ta'limga bioetikaviy imperativlarni joriy etish - zamonaviy tibbiyotni optimallashtirishning usuli sifatida 66

M.R.Sodiqova

Inson qadrini ta'minlashda demokratik qadriyatlarining o'rni 70

I.T.Boltaboyev

Ijtimoiy adolatning falsafiy talqini: tarixiy va zamonaviy yondashuvlar 74

S.R.Bo'ldiyeva

Buxoro hunarmandlarining e'tiqodi va ularning hayotdagi falsafiy qarashlari 79

M.X.Baratova

Kambag'allik muammosining ijtimoiy-falsafiy talqini va uni o'rganishning metodologik asoslari 84

B.Tadjixodjayev

Davlat boshqaruvida xarizmatik shaxslar faoliyatining sotsiologik tahlili 89

A.B.G'ulomov

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy tamoyillari va strategik asoslari 93

M.R.Sodiqova

Yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar 97

D.V.Vohidova

Xojagon tariqati va ma'rifatli jamiyatning ruhiy-ma'naviy asoslari 101

A.B.G'ulomov

Yangi O'zbekiston va fuqorolik jamiyati qurishda Farg'ona jadidchilik maktab namoyondalari ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ahamiyati 105



UO'K: 141.7:316.6

YOSHLARNING MAFKURAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOY-FALSAFIY OMILLAR**СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА МОЛОДЁЖИ****SOCIO-PHILOSOPHICAL FACTORS IN THE FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY OF YOUTH****Sodiqova Mahbubaxon Rahmonaliyevna** 
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va uni mustahkamlashning nazariy hamda amaliy asoslari yoritilgan. Maqolada mafkuraviy immunitet tushunchasining mohiyati, uni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy hamda ma'naviy-ma'rifiy jihatlarini tahlil qilingan. Shuningdek, Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarning g'oyaviy barqarorligini ta'minlashda oilaning, ta'lim muassasalarining va ommaviy axborot vositalarining o'rni ilmiy asosda ko'rsatib o'tilgan.

Аннотация

В данной статье освещены теоретические и практические основы формирования и укрепления идеологического иммунитета в сознании молодежи. В статье анализируется сущность понятия идеологического иммунитета, социально-философские и духовно-просветительские аспекты его воспитания. Также на научной основе показана роль семьи, образовательных учреждений и средств массовой информации в обеспечении идеологической устойчивости молодежи в условиях Нового Узбекистана.

Abstract

This article highlights the theoretical and practical foundations of forming and strengthening ideological immunity in the minds of young people. The article analyzes the essence of the concept of ideological immunity, socio-philosophical and spiritual-educational aspects of its upbringing. Also, the role of the family, educational institutions, and the mass media in ensuring the ideological stability of youth in the conditions of New Uzbekistan is shown on a scientific basis.

Kalit so'zlar: mafkuraviy immunitet, yoshlar, ma'naviy tarbiya, milliy g'oya, mafkuraviy tahdid, ma'rifat, ijtimoiy ong, g'oyaviy barqarorlik, Vatanparvarlik.

Ключевые слова: идеологический иммунитет, молодежь, духовное воспитание, национальная идея, идеологическая угроза, просвещение, общественное сознание, идеологическая стабильность, патриотизм.

Key words: ideological immunity, youth, spiritual education, national idea, ideological threat, enlightenment, social consciousness, ideological stability, patriotism.

KIRISH

Globalashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bugungi kunda yoshlar ongini turli yot g'oyalar, buzg'unchi axborotlar va ekstremistik mafkuralardan himoya qilish dolzarb ijtimoiy masalaga aylanmoqda. Internet tarmoqlari orqali tarqalayotgan axborotlarning bir qismi yoshlar dunyoqarashini buzib, ularni milliy qadriyatlardan uzoqlashtirishga urinish holatlarini keltirib chiqarmoqda. Shu sababli yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish - Yangi O'zbekistonning barqaror taraqqiyotini ta'minlashning muhim omilidir. *Bugungi yosh avlodning mafkuraviy immuniteti qanchalik kuchli bo'lsa, Vatanimizning kelajagi ham shunchalik mustahkam bo'ladi.* Mazmun jihatdan yoshlarni har qanday yot ta'sirlarga nisbatan ogohlikka, mustaqil fikrlashga, vatanparvarlik va ma'naviy barkamollikka chorlaydi.

Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish jarayonining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish, uni tarbiyalashning samarali usullari va mexanizmlarini aniqlash bugungi kunning eng muhi

m masalalaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi[1.78,79].

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida "Yoshlar - kelajagimiz bunyodkori" degan g'oya ustuvor o'rin tutadi. Shu bois yoshlarni ma'naviy va mafkuraviy jihatdan etuk etib tarbiyalash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ta'lim muassasalarida yoshlar bilan ishlashda interaktiv metodlardan keng foydalanish, yoshlar orasida ijobiy liderlikni rag'batlantirish, ularni ijtimoiy loyihalarga jalb etish mafkuraviy immunitetni mustahkamlovchi samarali vositalardir. Yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirish — bu uzoq muddatli, izchil va tizimli jarayon bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mafkuraviy immunitet kuchli bo'lgan yosh har qanday g'oyaviy bosimga bardosh bera oladi, mustaqil fikrlaydi va Vatan taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadi.

Shu bois, yoshlar bilan ishlashda ta'lim, oila, OAV, jamoatchilik va davlat institutlarining hamkorligi asosida yagona mafkuraviy-tarbiyaviy tizimni yaratish bugungi kunning eng muhim talabi va muhim vazifalardan biridir.

Mafkuraviy immunitet tushunchasiga alohida e'tibor qaratadigan bo'lsak, "Mafkuraviy immunitet" atamasi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, insonning yot g'oyalarga, buzg'unchi mafkuralarga va salbiy axborot oqimlariga qarshi mustahkam ma'naviy himoya tizimidir. Bu immunitet nafaqat g'oyaviy barqarorlikni, balki milliy o'zlikni anglashni, mustaqil fikrlashni va to'g'ri hayotiy pozitsiyani shakllantirishni ham o'z ichiga oladi[2.34,35.].

Mafkuraviy immunitet - shaxsning ichki ruhiy holati, u jamiyatning mafkuraviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. U yoshlarning ongida shakllansa, ular har qanday yot ta'sirni tanqidiy tahlil qila oladi, o'z e'tiqodi va qadriyatlariga sodiq qoladi.

Yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni hosil qilishda quyidagi asosiy omillar muhim o'rin tutadi:

- oilaviy tarbiya, bunda bolalikdan ota-onaning milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va ma'naviyatga sodiqlik ruhida tarbiyalashi mafkuraviy immunitetning poydevorini tashkil etadi;
- ta'lim tizimida, maktab, kollej, universitetlarda mafkuraviy tarbiya, "Milliy g'oya", "Ma'naviyat asoslari" kabi fanlar orqali milliy dunyoqarash shakllanadi;
- ommaviy axborot vositalarida, axborot xurujlari sharoitida ijobiy axborot siyosatini yo'lga qo'yish yoshlarni noto'g'ri g'oyalardan himoya qiladi;
- ijtimoiy muhit va do'stlar davrasi – sog'lom, vatanparvar yoshlar muhitida ulg'aygan shaxsda mafkuraviy immunitet mustahkam bo'ladi;
- madaniyat va san'at – milliy san'at, adabiyot va teatrlar orqali yoshlar ongida milliy g'urur, o'zlik va ma'naviy kuch shakllanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy istiqlool g'oyasining asosiy maqsadi fuqarolarni, keng jamoatchilikni asosiy g'oyalar, maqsad va yo'nalishlar bilan O'zbekiston taraqqiyot yo'lining ma'no va mazmuni, milliy-madaniy negizlari, xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyalashga qaratilgan. Shu bilan birga fuqaro va jamoalar ishonch uyg'otish, ularni adolatli, demokratik fuqarolik jamiyati qurilishi maqsadlarini amalga oshirishga uyushtirishda ma'naviy-ruhiy rag'batlantirishda o'z aksini topadi. Milliy istiqlool g'oyasi fuqarolarni g'oyaviy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan. G'oya bilan g'oyaning, fikr bilan fikrning, jaholatdan ma'rifatning farqini anglashga, ma'rifatga ishonch va e'tiqodni mustahkamlashga xizmat qiladi. Fuqarolarda milliy istiqlool g'oyasiga zid bo'lgan yot va begona, zararli g'oyalardan saqlashga, unga nisbatan fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan javob berish, unga doimo tayyor bo'la olish immunitetini shakllantiradi[3.45,46.]. Milliy istiqlool g'oyasi mamlakat oldida turgan ulug', bunyodkorlik ishlari undan ko'zlangan asosiy maqsad insonlarning erkin va farovon hayotga erishishi, ozod va obod Vatan qurish yo'lida har bir kishi uchun harakat yo'nalishi bo'lishiga qaratilgan. Milliy istiqlool g'oyasi hech qachon kishilarning ongi va dunyoqarashini, ularni yana allaqanday «qolipga», «yagona andozaga» solishga qaratilgan emas. U fikrlar, g'oyalar xilma-xilligiga asoslanadi. Erkin fikrni uyg'otish va fikr erkinligini kafolatlab berish, o'zgalar fikrini tinglash, eshitish va aytishga imkoniyat yaratadi. Demak, milliy istiqlool g'oyasi «hukmron g'oya»ga intilishdan mutlaqo begona bo'lganligi bilan ham boshqa nosog'lom g'oyalardan farq qiladi.

Mafkura bu, muayyan ijtimoiy guruh, sinf yoki, xalqning dunyoqarashini ifodalaydigan ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy yoki boshqa (masalan, diniy) tomondan tizimga solingan g'oyalar, tamoyil va kategoriyalar yig'indisi hamda ularning jamiyat hayotiga tadbiq etish yo'llari, usul va vositalari majmuasi hisoblanadi.

FALSAFA

Har qanday mafkura yaxlid mexanizm bo'lsada, biroq u analiz qilinganda u asosan, uch tarkibiy qismdan tashkil topganligi ma'lum bo'ladi. Ushbu tarkibiy qismlar:

Birinchisi, muayyan tizimga solingan (ilmiy, falsafiy, siyosiy, milliy, diniy va boshqa tomondan asoslangan) g'oyalar, kategoriyalar, tamoyillar majmuyi;

Ikkinchisi, mafkuradagi g'oyalar, kategoriyalar va tamoyillarni amaliyotga tadbqiq etuvchi subektiv omillar (mafkuraviy muassasalar va mafkurachi shaxslar);

Uchinchisi, g'oya va kategoriyalarni amaliyotga tadbqiq etish jarayonida qo'llanilgan yo'llar, usullar va vositalardir.

Mafkurani umumiy xolda chizmada quyidagicha ifodalash mumkin

Ta'kidlash kerakki, mafkura uch tarkibiy qismdan iborat bo'lsada aslida u bo'linmas, yaxlit mexanizm hisoblanadi. Ko'zlangan maqsadga erishishda mafkuradagi tarkibiy qismlarining roli beqiyos bo'lib, ularni mafkuraviy amaliyotdagi barobar harakatigina jamiyatni maqsad tomon olib boradi. Aksincha bo'lsa, ya'ni mafkuraning biror qismi to'la shakllanmagan bo'lib o'z vazifasini bajarmasa ushbu mafkura nuqsonli bo'lib jamiyatda o'z etakchiligini yo'qotadi[4.66,67.].

Mafkuraviy immunitet - davlat va millatning ma'naviy birligi, ma'naviy sog'lomligini himoya qiluvchi g'oyaviy qalqon vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham Islom Karimov «Farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarar»ligi haqidagi fikrni alohida ta'kidlaganlar.

Mafkuraviy immunitet milliy mustaqillikning afzalligiga ishonch asosida quriladi. Ishonch esa ishontirish va tushuntirish natijasida hosil bo'ladi. Masalan, O'zbekiston - dunyoviy davlat diniy davlatni taqqoslash natijasida tushuncha hosil bo'ladi.

Demak, mafkuraviy immunitetni shakllantirish muayyan vaziyatda insonning o'zi, xalqi, Vatani manfaatlar birligidan kelib chiqib, yot g'oyalarga qarshi tura olish malakalaridir.

MUHOKAMA

Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda mafkuraviy profilaktikaning o'rni katta. Mafkuraviy profilaktika xilma xil shakllarda ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy ishlar majmui, ya'ni ta'lim-tarbiya tizimini qamrab oladi.

Milliy g'oya asosidagi mafkuraviy immunitet har bir yigit-qiz, fuqaro mustaqillikning ma'nomohiyati, Islom Karimov asarlarida ilgari surilgan bunyodkor g'oyalar; yurtimizda amalga oshirilayotgan islohot natijalari, Vatan va dunyo tarixi, umumbashariy sivilizatsiya yutuqlariga doir bilimlarga tayanadi[5.56,67.]. Xulosa qiladigan bo'lsak, har bir kishi, jamoa va jamiyatning mafkuraviy bilim darajasini 5 holatga ajratish mumkin:

1. Yuqorida zikr etilgan bilimlardan mutlaqo bexabar, shuning uchun ham turli g'oyalarga befarq, loqaydlilar.

2. Bilimlari bor, lekin ular hayot, turmush bilan bog'lanmagan.

3. Hayotiy, umume'tirof etilgan siyosiy, mafkuraviy bilimlari bor, lekin o'quvchi yoki talaba ularni hayotda qo'llashga qiynaladi.

4. O'quvchi-talaba asosli bilimlarga ega, vaziyatni to'g'ri baholaydi, turli mafkuraviy ta'sirlarga amaliy munosabat bildiradi.

5. O'quvchi-talaba zarur bilimlarni puxta egallab, ularni amaliyotda bimalol qo'llab, buzg'unchi g'oyalarga qarshi faol turadi.

Mafkuraviy immunitet insonning Vatan va xalq manfaatlarini yo'lidagi faoliyatida namoyon bo'ladi. Mafkuraviy immunitet erkin, mustaqil fikrlashni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat bilan qarashni, insonparvarlikni kundalik hayotiy faoliyatga aylantirishni taqozo etadi[6.44,45.].

Hozirgi fan va texnologiyalar ravnaqi davrida boshqa kishilarning ongi va qalbiga yashirin, g'araz maqsad bilan ta'sir ko'rsatishni ifodalashda manipulyasiya (manus - qo'l) so'zi, ya'ni «ob'ekt ustidan biror maqsadda ish olib borish» ma'nosida ishlatilmoqda. Bunda chaqqonlik, mahorat talab qilinishi ko'zda tutiladi. Shu sababli, «manipulyasiya»ni ko'chma ma'noda «odamlar bilan ob'ekt sifatida munosabatga kirishish» deb ham tushuntirish mumkin. Bunda «boshqalarga bildirmasdan, asl maqsadni yashirin tutgan holda boshqalar ustidan hukmronlik qilib, o'zi istagan xulq-atvorni shakllantirish»dan iborat.

Shaxsning mafkuraviy immunitetiga ta'sir ko'rsatish jarayoni mani-pulyasiya tushunchasida aks etadi. Chunki, «davlatchi»ning ta'siri

1) shaxsga nisbatan zo'rlik, kuch ishlatilmaydi, balki ma'naviy, psixologik xususiyatga ega;

2) bu ta'sirda asl maqsad yashirin qoladi. Shuning uchun ham «islom dini niqobida» degan ibora ishlatiladi;

3) g'oyaviy manipulyasiya, zimdan ta'sir ko'rsatuvchidan mahorat va bilimni talab qiladi. SHuning uchun ham g'oyaviy manipulyasiyani mafkuraviy kurash, yot mafkuralar tomonidan qo'llanilayotgan ta'sir texnologiyasining tarkibiy qismi, deb atash mumkin. Ya'ni, manipulyasiya odamni u yoki bu ishni qilishga emas (targ'ibot va tashviqotdan farqli o'laroq), balki shu ishni qilishga xohish, istak uyg'otishga xizmat qiladi[7.92,93.].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Har bir kishi yoki jamoa, jamiyat mafkuraviy immunitetni besh darajaga bo'lib o'rganish, baholash, uni shu asosda takomillashtirish mumkin:

1. Mafkuraviy immunitetning quyi darajasi - shaxs, jamoa, jamiyat yuqoridagi bilimlardan xabardor emas, buzg'unchi mafkuraviy g'oyalarga befarq, loqayd.

2. Darajasi - bilimlar bor, lekin ular his qilinmagan, sistemalashmagan, shu sababli ularni buzg'unchi mafkuraviy g'oyalarga qarshi ishlatishga tayyor emas.

3. Mafkuraviy bilimlarga ega, lekin ular nazariy, shaxs, jamiyat ularni qo'llashga qiynaladi.

4. Asosli bilimlarga ega, vaziyatni to'g'ri baholay oladi, ichki va tashqi siyosiy, mafkuraviy ta'sirlarga qarshi immunitet shakllangan va uni ongli ravishda ishlatadi.

5. Oliy daraja - mukammal g'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarga ega va bu bilimlarni bimalol amalda qo'llab, buzg'unchi mafkuraviy, siyosiy g'oyalarni doimo hamma joyda fosh qila oladi.

Xulosa qilib aytganda, mafkuraning targ'ibotiga aynan shunday yondashish ko'proq samara beradi. Shundagina insonlarning salohiyati, mehnati, vaqti, mulki va mablag'larini tanlangan maqsad sari yo'naltirish mumkin. Bu esa mafkuraviy siyosatning natijasini moddiy narsalarda - yuqori sifatli mahsulotlarda, badavlat turmushimizda, bunyodkorlik ishlarida, erkin va farovon hayotda, iqtisodiy o'sishda «o'lchash» imkonini beradi.

ADBIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
2. G'afurov O., Xolmatov M. *Ma'naviy xavfsizlik va mafkuraviy immunitet asoslari*. – Toshkent: "Fan", 2020.
3. Habibullayev M. *Yoshlar tarbiyasida milliy g'oyaning o'rni*. – Toshkent: "Ma'rifat", 2019.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni. 2022-yil 25-yanvar.
5. Paxrutdinov Sh.I. "Tahdid" tushunchasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent.: Abu Ali Ibn Sino nomidagi .tibbiyot nashriyoti. 1998.
6. Maxmudov T. Mustaqillik va milliy mafkura. "Guliston" 1998.
7. Эргашев И. ва бошқ. Миллий истиқлол ғояси: Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалавриат босқичи учун дарслик. -Тошкент: Академия, 2005.
8. .Bekmurodov M. Mafkuraviy zombi qilish mexanizmi. "Ma'rifat" gazetasi, 2007 yil 2 iyun.